

Zarafshon

Fidoyilik – Vatanga xizmat demak!

2024-yil 16-noyabr, shanba,
132 (24.009)-son

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan

www.zarnews.uz https:/www.facebook.com/zarnews.uz @zarnews_uz https:/twitter.com/zarnews_uz

KUN HIKMATI

Qonun imtiyoz bermaydi, mas'uliyatni oshiradi



“MDHning madaniy poytaxti”

Bu maqom Samarqanddan Lochinga o‘tdi

MDH rahbarlari kelishuviga asosan 2024-yilda Samarqand shahri “MDHning madaniyat poytaxti” maqomida edi.

Mazkur loyiha doirasida yil davomida Samarqand shahrida MDH mamlakatlari xalqlari o‘rtasidagi do‘stlik va yaqin hamkorlikni yanada mustahkamlashga qaratilgan madaniy-ma’rifiy tadbirlar o‘tkazildi. Madaniyat va san’at namoyandalarining qadimiy kentga sayohatlari, ular ishtirokida ijodiy kechalar uyushtirildi.

Viloyat musiqali drama teatrida mazkur loyihaning Samarqandda yopilishi marosimi bo‘lib o‘tdi.

Tadbirda viloyat hokimining o‘rinbosari Rustam Qobilov, Samarqand shahar hokimi Fazliddin Umarov, Madaniyat vazirining birinchi o‘rinbosari Avazxon Tojixonov, MDHga a’zo davlatlar Gumanitar hamkorlik davlatlararo fondi ijrochi direktori Anatoliy Iksanov, Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi Siyosiy, gumanitar va ijtimoiy sohalarda hamkorlik departamenti direktori o‘rinbosari Xalmat Rashidov ishtirok etdi.

Samarqand shahar hokimligiga Hamdo‘stlik madaniyat poytaxti loyihasini munosib davom ettirgani uchun minnatdorlik bildirildi.

Shundan so‘ng “MDHning madaniy poytaxti” maqomi Ozarbayjonning Lochin shahriga tantanali topshirildi. Unvonni tasdiqlovchi sertifikatni Ozarbayjon Respublikasi Prezidentining Lochindagi maxsus vakili Masim Mamedov qabul qilib oldi.

Tadbir doirasida MDH yoshlar orkestrining konsert dasturi namoyish etildi.

F.RO‘ZIBOYEV.

E’tirof

“Doktor Kobra” “Shuhrat”li bo‘ldi

Alisher Yormatov nomi bugun nafaqat Samarqand, balki mamlakatimiz ahliga juda yaxshi tanish bo‘lib qoldi. U kishining ilonlarga o‘zgacha mehriyu, hayoti davomida 32 marta o‘lim bilan yuzma-yuz kelgani haqidagi gaplar allaqachon ko‘pchilikning qulog‘iga yetib borgan. Haqiqatan ham tabiatga oshno bu inson odamlarni davolashda faqat tabiatning o‘zidan, ammo ehtiyotkorona foydalanish kerak, deb hisoblaydi. Garchi bir necha marta o‘lim bilan yuzma-yuz kelsa-da, ilonlarga munosabatini o‘zgartirmagani, aksincha, ularni asrash, ko‘paytirish bo‘yicha yana ham g‘ayrat bilan ishga kirishganini kuzatish mumkin.

Ginnesning Rekordlar kitobiga kirishni maqsad qilgan tabib yaqinda Prezident farmoniga ko‘ra “Shuhrat” medali bilan taqdirlandi.

O‘zbekiston xalq tabobati assotsiatsiyasi a’zosi, "Xalq tabobati fidoyisi" ko‘krak nishoni sohibi A.Yormatovni xavfli kobralar tilini topishga nima undayotgani, bu qiziqishlariga sabab nimaligi bilan qiziqdik.

- E’tibor bersangiz, tibbiyot muassasalari ramziga aylangan idishga zahar solayotgan ilon tasviri bor. Bu bejiz emas, - deydi Alisher Yormatov. – Ilon zahrining foydali jihati qadim-qadimdan ma’lum bo‘lgan, undan foydalanilgan hamda keyinchalik sanoat usulida ishlab chiqarilgan dori vositalarida ham ushbu zahar ishlatilgan. Men bolaligimdan ilonlarga qiziqqanman, ular bilan muloqot qilganman. Kim bilsin, balki hamma qo‘rqqani uchun bu qo‘rquv menga begona ekanligini o‘zimga isbotlagim kelganmi yoki tabiatan shunaqa qiziqishim kuchli bo‘lganmi, ilonlar juda aqlli jonivor ekanligini, ular hech qachon odamga birinchi bo‘lib hamla qilmasligini o‘sha paytdayoq tushunganman.

To‘g‘ri, uyimizda ilonlarni saqlay boshlaganimda ko‘p noroziliklarga duch keldim. Lekin barchasini yengib o‘tdik, yaxshi gap, to‘g‘ri muomala bilan.

Bundan yigirma yillar avval qo‘limga akademik Pavlovskiyning bir kitobi tushib qoldi. O‘sha kitobda ilonlarning zahri bilan davolash usullari haqida o‘qidim va bunga qiziqib, turli manbalar bilan tanishib chiqdim. Shundan keyin ilon zahrini olish va undan foydlanishni avval o‘zimdan boshladim. Natijasini sezdik, farzandlarim salomatligi uchun ularni qo‘lladim. Ilonlar zahrini olish chog‘ida ehtiyotsizligim va tajribasizligim sabab bir necha marta ular meni chaqdi. Ba’zi barmoqlarim yaroqsiz holga keldi hatto. Lekin boshlagan ishimni to‘xtatib qo‘ymadim. Izlandim, o‘rgandim, o‘nlab xorij davlatlarida bo‘ldim. Ko‘plab xastaliklarni aynan ilon zahri bilan davolash sirlarini o‘rgandim va bugungi kunda o‘nlab xastaliklarni shu usulda davolab kelyapman.

Alisher Yormatov ilon zahridan malham, balzam va ukollar tayyorlaydi. Nurobod tumanining Jom qishlog‘ida tug‘ilib o‘sgan tabib shu yerda salomatlik markazi barpo etib, odamlarni davolayapti. Hatto saraton xastaligini davolab, natijaga erishgach, u kishiga shifo istab keluvchilar soni oshdi.

- Odamlarning ko‘plab kimyoviy dorilar iste’mol qilishi ularning salomatligiga jiddiy zarar keltiradi, - deya suhbatni davom ettirdi tabib. - Ilon zahri esa inson immunitetini ko‘taradi, uning salomatligini yaxshilaydi. Pandemiya payti oila a’zolarimizdan birortasi koronavirusga chalinmadi. Bu ham ilon zahrini ma’lum me’yorda, profilaktika uchun iste’mol qilayotganimiz tufayli. Biz tibbiyot xodimlari bilan hamkorlikda ishlasak, juda katta natijalarga erishishimiz mumkin.



Alisher Yormatovning bu ishini bugun farzand, nevaralari ham davom ettirmoqda. Hayotini xavf ostiga qo‘yib, bu insonning hayot va faoliyati haqida gapirsangiz, katta kitob bo‘ladi. Axir tabibning hayoti mazmuniga aylanib ketgan bu ulkan qiziqish, haliyam katta rejalarga undayotgan, “Doktor Kobra” taxallusini bergan tabiatning bu jonivorlari bilan do‘stlik noyob hodisa-da.

Gulruh MO‘MINOVA.



INDALLOSINI AYTGANDA...

Nodir JUMAYEV,
iqtisod fanlari doktori, professor:
– O‘zbekiston nafaqat o‘z mintaqasida, balki keng xalqaro maydonda ham barqarorlikka xizmat qiladigan kuch sifatida tanilib bormoqda.

Yangi avtoboshbekatlarning qurilishi qachon boshlanadi?

Kun mavzusi

So‘nggi yillarda Samarqandni 1 million aholi yashovchi shaharga aylantirishga bo‘lgan harakatlar jadallik bilan davom etmoqda. Shahar va shahar atrofida ko‘pqavatli uylar, xiyobon, istrohat bog‘lari, ta’lim va tibbiyot muassasalari bunyod etilyapti.

Biroq ulkan shaharga kirib kelayotgan aholining shahar ko‘chalarida erkin harakatlanishi, ko‘zlagan manziliga ko‘p vaqt sarflamay yetib olishi uchun jamoat transporti xizmati sifatini oshirish lozim.

Prezidentimizning 2023-yil 16-fevraldagi “Jamoat transporti tizimini isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi hamda viloyat hokimining qarori asosida jamoat transportida aholiga xizmat ko‘rsatishni yaxshilash, yo‘nalishlar tarmog‘ini kengaytirish, avtoboshbekatlar qurish, zamonaviy avtobuslar xarid qilish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

- Samarqand shahrining Cho‘ponota hududidagi Samarqand xalqaro avtoshohbekati yil oxirigacha ishga tushirilib, jamoat transportlarini qabul qilishni boshlaydi, - deydi viloyat transport boshqarmasi bosh mutaxassisi Bunyod Qo‘shoqov. – Urgut va Toyloq tumanlariga qatnovchi transport vositalari va yo‘lovchilar uchun Samarqand tumanining Chumchuqli mahallasi hududida, Oqdaryo, Payariq, Ishtixon, Qo‘shrabot tumanlari uchun O‘zbekkent mahallasida hamda tumandagi Parrandachilik mahallasi (Qarshi aylana yo‘li) hududida, Kattaqo‘rg‘on, Nurobod tumanlaridan keluvchilar uchun Past Darg‘om tumanida avtoboshbekat qurilishi rejalashtirilgan edi. Biroq oradan ikki yildan ziyod vaqt o‘tayotgan bo‘lsa-da, bu boradagi ishlar boshlangan emas. Ayrimlarida haligacha tender savdolari tashkil etilmagan bo‘lsa, ba’zisida ijaraga olingan yer maydonlari o‘lchab berilmagan.



Samarqand tumanidagi O‘zbekkent mahallasida (Motrid aylanma yo‘li) avtoboshbekat, logistika markazi, supermarket, muz saroyi, motel hamda bolalar maydonchasi va boshqa obyektlar uchun 11 gektar yer maydoni ajratilgan bo‘lib, “Urgut avtosentr” MChJ tomonidan bunyodkorlik ishlari olib borilmoqda. Qurilish obyektida 10 dan ziyod maxsus texnika va 30 nafarga yaqin quruvchilar mehnat qilmoqda.

- Ayni vaqtda poydevor yotqizish ishlarini olib boryapmiz, - deydi qurilish korxonasi rahbari Jur’at Ismatov. – Bunyodkorlik ishlariga 406 milliard so‘m mablag‘ ajratish ko‘zda tutilgan. Bu borada Xitoy va Rossiya davlatlaridagi investorlarimiz bilan hamkorlik o‘rnatganmiz. Joriy yil yakunigacha ular ajratgan 17 million AQSh dollari kelib tushadi. Majmuadan tashqari shu hududda 17 ta ko‘pqavatli uy-joy quriladi.

Chumchuqli mahallasida avtoboshbekat uchun ajratilgan qariyb 2 gektar maydon "Interagro zo`r panel" MChJ tomonidan ijaraga olinib, sentabr oyida qurilish ishlari boshlanishi kerak edi. Ammo turli bahonalar bilan ishlar ortga surilmoqda.

- Joriy yilning iyul oyida avtoboshbekat va avtoturargoh qurishga mo‘ljallangan yer maydoni uchun o‘tkazilgan elektron auksionda g‘olib chiqqan edik, - deydi "Interagro zo`r panel" MChJ rahbari Xurshid Abbosov. – Biroq shu paytgacha bu yerga egalik qilib kelgan korxona tomonidan paysalga solib, bizga maydon o‘lchab berilgani yo‘q. Ushbu masala hal etilsa, qurilishni boshlab yuboramiz.

Samarqand tumanidagi Parrandachilik mahallasi (Qarshi aylana yo‘li) ham “Ohalik bog‘lari” MChJ hududidagi ajratilgan maydonda ham “Parrandachilik” avtoboshbekati qurilishi boshlangan emas.

- Viloyat hokimining qarori bilan tumanimiz hududida uchta avtoboshbekat qurilishi ko‘zda tutilgan edi, - deydi Samarqand tumani hokimining qurilish va uy-joy kommunal masalalari bo‘yicha o‘rinbosari vazifasini bajaruvchi Tal’at G‘aybullayev. – “Universal proekt plus” MChJ tomonidan ishlab chiqilgan loyiha viloyat qurilish bosh boshqarmasi huzuridagi arxitektura va shaharsozlik kengashi tomonidan ma’qullangan. Hozirda tender tanlovlari o‘tkazilishi bilan ishlar boshlab yuboriladi.

- Ba’zi kunlari ko‘chaga odam sig‘may ketadi, - deydi Parrandachilik mahallasida yashovchi Latif Hamroyev. - Yo‘lovchilar chorrahada turib olib, taksi to‘xtatishadi. Bu holat boshqa transport vositalari harakatiga xalaqit beryapti. Agar bu yerda avtoboshbekat qurilsa, nafaqat Nurobod tumani, balki Qashqadaryo, Surxondaryo, Buxoro va Navoiy viloyatlariga ham avtobuslar qatnovini yo‘lga qo‘yish mumkin.

Viloyat transport boshqarmasidan olingan ma’lumotlarga ko‘ra, bugungi kunda turli yo‘nalishdagi 50 dan ziyod avtobus kirib o‘tadigan “Xazora” avtoboshbekati ham boshqa hududga ko‘chishi belgilangan. Mazkur hududda aholi gavjumligi va yirik bozor joylashganligini e’tiborga olib, Samarqand shahrining Vatanparvar mahallasi hududida qurilishi ko‘zda tutilgan. Ayni vaqtda tabiiy gaz, elektr va aloqa kommunikatsiya tarmoqlarini ko‘chirish masalasida tegishli tashkilotlardan xulosa olish masalalari hal etilmoqda.

Bugun viloyatimiz jamoat transportida katta o‘zgarishlar bo‘lmoqda. Jumladan, xorijdan yuzga yaqin elektrobus keltirilyapti. Yo‘lovchi tashishda Brutto shartnomasiga amal qilinmoqda. Eng muhimi, odamlar avtobuslarda harakatlanishni ma’qul ko‘rmoqda. Bu esa barcha qulayliklarga ega, zamonaviy avtoboshbekatlar zarurligini ko‘rsatib turibdi.

Dilmurod TO‘XTAYEV,
“Zarafshon” muxbiri.

Bir jumlada

***Samarqand shahri**dagi Sherdor madrasasi AQSh madaniy merosni asrab-avaylash jamg‘armasining 500 ming dollarlik granti asosida konservatsiya va restavratsiya qilinadi.*

***Kattaqo‘rg‘on shahri**ning Zarafshon mahallasida yashovchi fuqaro Sh.T. qattiq va maishiy chiqindilarni belgilanmagan hududga tashlagani uchun 1 million 20 ming so‘m jarimaga tortildi.*

*“**Bulung‘ur tumangaz**” gaz ta’minoti bo‘limining mahallada ishlash xizmati xodimi xonadonda aniqlangan zarar miqdorini kamaytirib berish evaziga 4,4 million so‘m pora olayotgan vaqtda ushlandi.*

***Kattaqo‘rg‘on tumani** Qirg‘iz mahallasining 10 nafar ishsiz xotin-qizlari “Marufboy 909” MChJga ishga joylashtirildi.*

***Narpay tumani** yo‘llardan foydalanish davlat muassasasiga Avtomobil yo‘llari qo‘mitasi tomonidan 1 milliard 150 million so‘mlik maxsus avtogreyder topshirildi.*

***Past Darg‘om tumani**ning 10 817 gektar ekin maydonlarida suv tejovchi texnologiyalar joriy qilingan bo‘lib, 2025-yilda yana 3200 gektar maydonda tomchilatib, yomg‘irlatib va diskret sug‘orish tizimlarini yo‘lga qo‘yish rejalashtirilmoqda.*

***Paxtachi tumani**dagi 215 ta fermer xo‘jaligi “Paxta to‘qimachilik klasteri” bilan shartnoma asosida 8195 gektar maydonda g‘o‘za parvarishlab, 31 ming 203 tonnalik rejani uddaladi.*

***Samarqand tumani** Qaynama mahallasidagi 3 ta suv inshooti ta’mirlanib, 900 ta xonadon toza ichimlik suvi bilan ta’minlandi.*

***Toyloq tumani**da joriy yilda 151 ming tonna qishloq xo‘jalik mahsulotlari yetishtirildi.*

***Qo‘shrabot tumani** Jo‘sh ota mahallasi hududidagi 1,5 kilometr ichki tuproq yo‘llarga qum-shag‘al to‘kilib, Katta Oqmachit mahallasi hududida joylashgan 64-maktabga boruvchi piyodalar yo‘lakchasi qurish ishlari boshlandi.*



“Biz “musorchi” emas, TOZALOVCHI

Odamlarning munosabatidan dilimiz og‘riydi”

Kimdir chiqindini hafsalasizlik bilan duch kelgan joyga uloqtiradi. Boshqa birov esa tong sahardan uni tozalash bilan ovora. Ob-havoning qandayligi, ish yoki bayram kuni bo‘lishidan qat’i nazar, obodonlashtirish xodimlari doim shaharni orasta qilish, toza muhitni yaratish uchun tinim bilmay ishlaydi. Afsuski, halovatidan kechgan tozalik posbonlarining bu mehnati har doim ham qadrlanavermaydi.

Qahramonimiz - Samarqand shahridagi Yoshlar mahallasida yashovchi To‘ychixon Haydarova 37 yildan buyon shu sohada ishlab, shahrimiz obodligiga hissa qo‘shib kelmoqda.

- Har bir kasbning o‘ziga yarasha mashaqqati bo‘ladi va ana shunday kasblardan birini tanlaganimdan afsuslanmayman, - deydi To‘ychixon opa. - Obodonlashtirish sohasida hamma ham ishlamaydi. Chunki maosh kam, ish ko‘p. Lekin ro‘zg‘or tebratishga yetadi. Shu kasbim ortidan ikki o‘g‘il, bir qizimni o‘qitib, uy-joyli qildim. Ko‘chada bashang kiyingan, qimmat mashinada yuradigan odamlarga havas qilardim. Allohga shukr, bolalalarimni hech kimdan kam qilmadim, hayotda o‘z o‘rnini topishdi.

Bizga Samarqand shahridagi Islom Karimov va Shohi Zinda ko‘chalari biriktirilgan bo‘lib, mahalliy va xorijlik sayyohlar bilan gavjum ushbu hududlarda 30 nafardan ziyod xodim mehnat qilamiz. Ishimiz oson emas. Har kuni tong sahardan belgilangan hududlarda tozalash ishlarini olib boramiz. Shu bilan birga, bahorda gul va daraxtlar ekamiz, yozda maysalarni parvarishlaymiz, kuzda barg-xazon mavsumi, qishda esa ko‘cha va yo‘laklarni qordan tozalaymiz. Xullas, to‘rt faslda ham bizga ish topiladi.

To‘ychixon opa bilan suhbatlashar ekanmiz, aksariyat hollarda odamlarning obodonlashtirish xodimlariga nisbatan munosabatidan ranjishini aytdi.

- Ko‘pchilik bizni "musorchi" deydi, aslida biz tozalovchi, - deya ko‘ziga yosh oladi To‘ychixon opa. - Hozir shahrimiz ko‘chalarida chiqindi qutilari o‘rnatilgan, maxsus joylar tashkil etilgan. Ammo odamlar duch kelgan joyga chiqindi tashlaydi. Aybimiz ularning chiqindisini tozalaganimizmi? Shunday paytda insonlar ota-onasini bizning o‘rnimizga qo‘yib ko‘rishsa, dilimiz qanchalik og‘rishini biladi. Rosti, bunaqa holatga ko‘nikib ham qolganmiz. Farzandlarim yoshim o‘tganini, endi dam olishimni ko‘p aytishadi. Lekin kasbimni yaxshi ko‘raman, ishlashga o‘rganib qolganman. Nasib qilsa, bir-ikki yil qoldi, shu sohadan pensiyaga chiqmoqchiman.

Fazliddin RO‘ZIBOYEV.

18-noyabr – O‘zbekiston Respublikasi davlat bayrog‘i qabul qilingan kun



Muqaddas tug‘

Mamlakatimiz istiqlolga erishgach, 1991-yil 18-noyabrda "O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i to‘g‘risida"gi Qonun qabul qilindi. Bayrog‘imizda moviy, oq, yashil ranglar, qizil chiziqlar, o‘n ikki yulduz, yarim oy shakli tasvirlangan.

Tilshunoslarning ta’kidlashicha, bayroq qadimgi turkchada baziraq, badiroq, batiroq tarzida ham qo‘llangan. Bayroq biror el-ulus, qavmning erkinlik belgisi bo‘lib, u baland joylarga, hukmdor chodiriga o‘rnatilib, sanchib qo‘yilgan. Uni tug‘, yalov, sanchoq (sanjoq) nomlari bilan ham ataganlar.

Past Darg‘om tumanida Baqiroq va Sanchiqul mahallalari mavjud. Bu joy nomlarining xalq tomonidan atalishi bayroq nomi bilan bog‘liq. Baqiroq aslida qadimiy turkiy tilda baziroq, badiroq, batiroq, botirmoq, bayroq so‘zlarining talaffuzda o‘zgarish holatidir. Sanchiqul esa sanjoq, ya’ni bayroqni hukmdor qarorgohiga, baland tepalikka sanchib qo‘yish ma’nosidan olingan. Miloddan avvalgi IV-V asrlarda Kichik Osiyo shaharlarida yashab o‘tgan yunonlar yurtimiz aholisi, viloyatlari haqida ma’lumotlarga ega bo‘lishgan. Yozma manbalarda O‘zbekistonning ayrim viloyatlari “ming shahar o‘lkasi”, “baland bayroqli go‘zal davlat”, “quyosh o‘lkasi” kabi nomlar bilan mashhur. Rimlik tarixchi Pompey Trog baqtriyaliklar misrliklar bilan bahslasha oladilar, deb xabar qiladi.

Yurtimizdagi qadimgi Baqtriya, Xorazm, So‘g‘diyona kabi davlatlar, sak, massaget, o‘g‘uz, qarluq, qipchoq, qavchin, barlos, orlot, jaloyir, saroy, qo‘ng‘irot, ming qabilalarining mustaqil ramzi – bayrog‘i bo‘lgan. Qo‘shin safida bayroq ko‘tarib boradigan shaxs bayroqdor deyilgan. Davlat bayrog‘i muqaddas sanaladi. Chunki u xalqning o‘tmishi, buguni, kelajagini o‘zida mujassam etgan Vatanning yorqin timsolidir. Davlat bayrog‘i - mamlakat suverenitetining ramzi hisoblanib, u yer yuzining shu sarhadlarida mustaqil O‘zbekiston davlati borligini anglatadi.

Sharifjon SAXATOV,
Past Darg‘om tumanidagi 8-umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘qituvchisi.

YANGI BAHOLASH TIZIMI:

AFZALLIKLAR VA MUAMMOLAR

Viloyatimizdagi ayrim maktablar yangi baholash tizimiga o‘tib, faoliyat olib bormoqda. Kattaqo‘rg‘on shahridagi uchta maktab yangi baholash tizimiga o‘tgan. Ulardan biri 2-IDUM bo‘lib, unda 1451 nafar o‘quvchi ta’lim olmoqda. Xo‘sh, yangi baholash nima degani? Maktablarda joriy etilayotgan baholash tizimini mazkur muassasa misolida o‘rgandik.



- Maktabimiz 2020-2021-o‘quv yilida kimyo-biologiya faniga ixtisoslashtirilgan, - dedi maktab direktori Zamira Isanova. – O‘tgan o‘quv yilidan boshlab yangi baholash tizimiga o‘tdik. Hozircha bu baholash tizimni 5-sinfdan 11-sinfgacha bo‘lgan o‘quvchilarga joriy etdik. To‘g‘ri, boshida biroz qiynaldik, ota-onalarga yangi tartibni tushuntirishimizga to‘g‘ri keldi.

- Yangi baholash tizimida o‘quvchiga darsda ishtirok etgani, uyga vazifani bajarganiga baho emas, ball beriladi, - dedi direktor o‘rinbosari Hasan Toyirov. – Masalan, uyga vazifani a’lo bajargan o‘quvchiga 4 ball beriladi. Agar o‘quvchining bajargan uyga vazifasida xato va kamchiliklar bo‘lsa, 3 ball oladi. Agar u darsda faol ishtirok etsa, u yana 6 balni qo‘lga kiritadi. Darsda o‘quvchining faolligiga qarab, 1 baldan 10 balgacha beriladi. Shuningdek, o‘quvchi bob bo‘yicha summativ baholash (BSB)dan 50 ball, chorak bo‘yicha summativ baholash (CHSB)dan 40 ball olsa, u yetarli balni to‘plagan bo‘ladi. O‘quvchilar bir chorakda uch martagacha bob bo‘yicha summativ baholanadi. Chorak yakuni bo‘yicha bir marta summativ baholanadi. Tekshirish yakuniga ko‘ra, o‘quvchilarning to‘plagan ballari bir hafta muddat ichida elektron jurnalga qo‘yiladi.

Yangicha baholash tizimining afzalligi shundaki, o‘qituvchi qasddan o‘quvchiga past ball yoki yordam sifatida yuqori ball qo‘ya olmaydi. O‘z navbatida, o‘quvchi ham harakat qilmasa, darslarni o‘zlashtirolmay, sinfdan sinfga qolishini anglab yetadi va o‘qishga majbur bo‘ladi. Sababi, yangicha baholash tizimida reja bo‘yicha har chorakda to‘rtta fanning bob yoki choraklik bo‘yicha summativ imtihonlari Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi maktabining ishchi guruhi tomonidan olinadi. Har bir fan bo‘yicha summativ baholash (BSB va ChSB) materiallari Ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari agentligi huzuridagi Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi tomonidan taqdim etiladi.

O‘tgan o‘quv yilida maktab ma’muriyati summativ baholashda shaffoflikka erishish uchun qolgan fanlarning imtihonlarini olishga boshqa maktab o‘qituvchilarini jalb etgan. O‘z navbatida, maktab o‘qituvchilari ham yangicha baholash tizimiga o‘tgan maktablarga summativ baholashga jalb etilgan.

Yangicha baholash tizimida bir chorakda o‘quvchi 30 baldan 100 balgacha to‘plashi lozim. Agar u 30 baldan past ball olsa, “2” baho olgan hisoblanadi. Summativ baholash jarayoniga asosli sabablarga ko‘ra qatnasha olmagan o‘quvchilar uchun baholash jarayoni alohida o‘tkazilishiga ruxsat beriladi.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, endi o‘qituvchi o‘quvchining bahosini biroz oshirib qo‘ya olmaydi. Yangicha baholash tizimida o‘quvchining haqiqiy bahosi chiqadi. 2023-2024-o‘quv yilida Kattaqo‘rg‘on shahridagi 2-IDUM bitiruvchilaridan ikki nafari kumush medal olgan, oltin medal hech kimga nasib qilmagan. Bu holat ham ota-onalarning biroz e’tiroziga sabab bo‘lgan. Maktabning 95 nafar bitiruvchisidan 13 nafari oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirgan.



Har bir yangilikning o‘ziga yarasha muammolari bo‘lishi tabiiy. Yangi baholash tizimiga o‘tgan maktab qog‘oz muammosidan qiynalyapti. Chunki 850 nafar atrofidagi o‘quvchini har bir fandan summativ baholash uchun elektron yuborilgan materiallar qog‘ozga chiqarilib, o‘quvchilarga tarqatiladi. Maktabga ajratiladigan pul bunday qog‘oz sarfiga yetmaydi. Summativ baholash kompyuterda olinsa ham bo‘ladi, ammo bunga maktabning 30 ta komp-

YUQORI SINF O‘QUVCHILARI KASBNI O‘RGANYAPTI

Mazkur ixtisoslashtirilgan davlat umumta’lim maktabida yuqori sinflar kasb-hunarga o‘rgatilyapti. Hozircha maktabda tikuvchilik va veb-dizayn kasblarini o‘rgatish yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, 6 ta tikuv mashinasi berilgan.

- Ustozimiz oddiy chokdan tortib bezak va kashta choklari tikishni o‘rgatdi, - dedi 10-sinf o‘quvchisi Shahrizoda Bahodirova. – Qiz bola qaysi kasbni egallamasin, u uyda beka sifatida tikishni bilishi kerak. Shuning uchun ushbu kursga qatnab, tikishni o‘rganyapman.

- Mashg‘ulotlar haftada uch marta o‘tkaziladi, - dedi tikuvchilik kursi rahbari Nargiza Jabborova. – O‘quvchi qizlarga oddiy tikishdan tortib kiyim-kechak tikishgacha o‘rgataman. Maktab bitiruvchilariga tikishni bilish darajasini beruvchi sertifikatlar topshiriladi. Ular mustaqil hayotga qadam qo‘ygach, shu kasb bo‘yicha ishlashi mumkin.

MA’NAVIYAT SEKTORI MAKTABI MAQOMI BERILGAN

Kattaqo‘rg‘on shahriga qilgan safarimiz davomida 11-IDUM faoliyati bilan ham tanishdik. Maktabda o‘tgan o‘quv yilidan boshlab yuqori sinf qizlariga tikuvchilik, o‘g‘il bolalarga sartaroshlik kasbi o‘rgatilyapti. Maktabda 21 ta tikuv mashinasi bo‘lib, xomashyo, ya’ni tikish uchun matolar mahalliy budjetdan beriladi.

- Buyurtma asosida dasturxon, yostiq, xalat, choyshablar tikib sotyapmiz, - deydi maktabning texnologiya fani o‘qituvchisi Xolida Shavriqova. – O‘quvchilar sotilgan mahsulotlarining pulini olyapti. Bundan tashqari, turli bayram tadbirlariga sahna uchun gullar yasab sotamiz.

Maktabda o‘g‘il bolalarga sartaroshlik kasbi bo‘yicha maxsus xona ajratilgan va kerakli asbob-uskunalar o‘rnatilgan. Haftada uch kun darsdan keyin yuqori sinf o‘quvchilari mashg‘ulotlarga jalb etiladi.

Ixtisoslashtirilgan maktabdagi yana bir to‘garakda o‘quvchilar duradgorlikni o‘rganyapti. Ularga ajratilgan xonada duradgorlik uchun kerakli barcha jihozlar o‘rnatilgan.

- Kasb-hunar o‘rganayotgan yuqori sinf o‘quvchilari, maktab va shahar hokimligi o‘rtasida uch tomonlama shartnoma imzolangan, - deydi maktab direktori Ozoda Salimova. – Shartnomaga asosan, maktab bitiruvchilarini shahar hokimligi ish bilan ta’minlab beradi.

Bundan tashqari, maktabda turli buyumlar yasab, daromad qilayotgan iqtidorli o‘quvchilar bor. Ulardan biri 8-sinf o‘quvchisi Mehrangiz Toyirjonova. U 6-sinfdan boshlab munchoqdan turli buyumlar yasab sotadi. Bir-biridan chiroyli munchoqli buyumlarning xaridorlari ko‘p. Quroqchilik bilan shug‘ullanib kelayotgan Rayhona Sanayevaning mahsulotlarini turmushga chiqayotgan qizlar sotib olyapti.

8-sinf o‘quvchisi Mehrona Shukurova esa mozaika san’at turi bilan shug‘ullanadi.

- Mozaika san’atini o‘tgan yili internetdan ko‘rib qolib o‘rgandim. Onam qiziqishimni ko‘rib, menga kerakli mahsulotlar olib berdi, - dedi Mehrona. – Shundan keyin bu hunar bilan shug‘ullanib, mahsulotlarimni do‘konlarga sotaman, hatto ulardan buyurtma ham olyapman.

Yana bir 8-sinf o‘quvchisi Shahlo Muhammadiyeva chizgan rasmlari bilan turli tanlovlarda qatnashib, faxrli o‘rinlarni qo‘lga kiritib kelmoqda. Yozda u chizgan rasmlar xalqaro ko‘rgazmaga qo‘yildi.

Muassasa “Xorijiy tillarni o‘qitish bo‘yicha eng yaxshi maktab” tanlovining shahar bosqichida uch yildan beri g‘oliblikni qo‘lga kiritib kelmoqda.

- Ayni kunda 50 nafar o‘quvchining chet tilini bilish darajasi bo‘yicha sertifikati bor, - dedi maktab direktori. – Maktabimizda 16 nafar ingliz tili o‘qituvchisi bo‘lsa, ulardan 15 nafarida xalqaro C1 darajali sertifikat mavjud.

2023-2024-o‘quv yilida maktabning 78 nafar bitiruvchilaridan 38 nafari oliy ta’lim muassasalariga davlat granti asosida o‘qishga kirgan. Xususiy va chet el oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirganlari hisobga olinsa, bitiruvchilarning yuz foizi oliy ta’limda o‘qishini davom ettiryapti.

Ushbu ko‘rsatkich va yutuqlar inobatga olinib, muassasaga viloyatda ma’naviyat sektori maktabi maqomi berilgan. Maktab hovlisida ma’naviyat bog‘i, kitob bekati bo‘lib, o‘quvchilar bo‘sh vaqtida kitob mutoala qiladi. Biz guvoh bo‘lgan ikkala maktab ham zamonaviy shart-sharoitlarga ega. Sinflarda televizor va elektron doskalar mavjud, turli o‘quv qurollari, ko‘rgazmali materiallar bilan bezalgan. Boshqa maktablarda ham shunday sharoitlar bo‘lishini orzu qilib qaytdik.

Xurshida ERNAZAROVA.

Hamshira – shifokorning qanoti

Doya - chaqaloq dunyoga kelgandan keyin uni onasidan ham avval qo‘lga oladigan inson. Shu bois azaldan doyalar el orasida alohida hurmatga sazovor bo‘lishgan.

Samarqand shahridagi 3-tug‘ruq majmuasi doyasi Viloyat Ashurova ana shunday fidoyi hamshiralardan biridir. U 21 yildan buyon shu sohada mehnat qilib, faoliyati davomida mingdan ziyod onalarning farzand ko‘rishdek baxtga erishishiga yordam berib kelyapti.

Viloyat opa Ishtixon tumanidagi Mohipar qishlog‘ida tug‘ilgan. Samarqand tibbiyot kollejining doyalik bo‘limida o‘qib, kasb sirlarini o‘rgandi. Mehnat faoliyatini 2003-yilda viloyat perinatal markazida doyalikdan boshlagan. Qisqa fursat ichida mehnatsevarligi va tashkilotchiligi bilan jamoa hurmatini qozondi.

Keyinchalik Farg‘ona viloyati Quvasoy shahar markaziy shifoxonasida, 2014-yildan boshlab Samarqand shahridagi 1-tug‘ruq majmuasida doyalik qildi. Tajribali hamshira hozirda Samarqand shahar 3-tug‘ruq majmuasida sog‘lom farzandlar tug‘ilishiga, onalik va bolalikni muhofaza qilishga o‘z hissasini qo‘shib kelmoqda.

Tajribali doya V.Ashurova o‘z sohasini mukammal biladi. O‘ziga yuklatilgan vazifani chuqur



his etadi. Tibbiyot sohasida to‘plagan tajribalarini shogirdlari va yosh doyalarga o‘rgatib kelmoqda.

...Yarim tunda Tez yordam mashinasi homiladorlik davri og‘ir kechgan 19 yoshli ayolni tug‘ruqxonaga olib keladi. Ayolning ham, farzandining ham hayoti qil ustida turibdi. Jarrohlik amaliyoti o‘tkazilayotgan vaqtida bemorga zudlik bilan qon quyishga to‘g‘ri keldi. Biroq shu kuni og‘ir bemorlar ko‘p bo‘lgani uchun zahiradagi qon plazma kam qolgan ekan. Qon olib kelish uchun biroz vaqt kerak. Shifokorlar esa kutishga vaqt yo‘qligini sezib turibdi. Shunda bo‘lajak onaning qon guruhi o‘ziniki bilan to‘g‘ri ekanligini bilgan Viloyat opa homilador ayolga qon berishini aytdi. Shunday qilib ona va uning egizak farzandlarining hayotini saqlab qolinadi. Bu kabi kutilmagan voqealar opaning hayotida ko‘p uchraydi. Ikki nafar farzandning onasi V.Ashurova haqida yuzlab onalar iliq fikr bildiradi.

- Elning koriga yarash sharafli ish, - deydi tajribali doya Viloyat Ashurova. - Xalqimizga ozgina bo‘lsa-da, foydam tegayotganligidan xursandman. Oddiy hamshira uchun bundan ortiq baxt bo‘lmasa kerak.

Olga YAKUBOVA,
Samarqand shahar tibbiyot birlashmasining hamshiralik ishi bo‘yicha bosh mutaxassisi.

Tyutor – o‘qituvchi, murabbiy, vasiy

Oliy ta’lim muassasalarida tyutorlik faoliyati boshlanganiga ko‘p bo‘lmadi. Prezidentimizning “O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonida bu sohani takomillashtirish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar belgilangan bo‘lib, “tyutorlik faoliyati” ham ilk bor shu hujjatda tilga olindi va amaliyotga joriy etildi.



Yaxshi bilamiz, oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari talabalarga dars berish bilan bir qatorda o‘z ilmiy faoliyatini olib boradi, ilmiy tadqiqotlarni amalga oshiradi. Shuning uchun ular darsdan bo‘sh vaqtlarini asosan ilmiy izlanishlar olib borishga sarflaydi.

Bugungi kun talabalari ta’lim olishini yaxshilashda ularning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishi, madaniy-ma’rifiy anjumanlar atrofida birlashishi, shaxs sifatida o‘zini kashf etishga turtki berish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Tyutorlar aynan shu masalada yoshlarga asosiy ko‘makchi vazifasini bajarmoqda. Aslida tyutorlik tushunchasi bundan bir necha asrlar avval ham mavjud bo‘lgan.

Manbalarda ta’kidlanishicha, dastlabki tyutorlar XII asrda Angliyaning Oksford va Kembrij universitetlarida paydo bo‘lgan. Atama ingliz tilidan olingan va “uy o‘qituvchisi, o‘qituvchi, murabbiy, vasiy” ma’nolarini anglatadi. “Tyutorlik” so‘zi insonning shaxsiy ta’limini qo‘llab-quvvatlashni anglatadi. Bu juda nozik, “xususiy” ish faoliyatidir.

XVII asrdan tyutorlik tizimi rasman ingliz oliy ta’limi tizimining ajralmas qismi sifatida tan olina boshlagan.

Ma’lumotlarga qaraganda, zamonaviy Oksfordda 90 foiz, Kembrijda esa 75 foiz tyutorlar bir yoki ikki nafar talaba bilan ishlaydi. Ular maxsus ma’lumotga ega bo‘lmasa-da, talabalarga ham o‘qish davomida, ham ta’til paytida rahbarlik, ma’nan ustozlik qilishga mas’ul hisoblangan.

Bugun tyutorlar asosan talabalarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish, ularning yashash hududlaridagi muammolar bilan shug‘ullanyapti. Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetida ham talabalar ta’lim-tarbiyasi, o‘zlashtirishi va ular ongiga milliy qadriyatlar ruhini singdirishga alohida e’tibor qaratyapmiz. Asosan ota-onalar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yishga harakat qilamiz. Chunki aksariyat ota-onalar farzandi oliy ta’lim muassasasida tahsil olayotganda ularga to‘liq ishonib, xotirjamlikka beriladilar. Afsuski, ayrim talabalar o‘z yashash joyidan uzoqda, turli do‘stlari ta’siriga tushib, nojo‘ya qadam bosishi mumkin. Shunday holatlarda ota-onaning tergab, xabardor bo‘lishi muhim ahamiyatga ega.

Qolaversa, talabalarning darsdan keyingi vaqtlarini mazmunli o‘tkazish, ularning jamoada ishlash ko‘nikmasini shakllantirish maqsadida tez-tez tarixiy obidalarga sayohatlar, turli tanlov va viktorinalar o‘tkazyapmiz, ekologik madaniyatini shakllantirish niyatida ko‘chat o‘tqazish va boshqa yumushlarni birgalikda bajaramiz.

Surayyo JONUZOQOVA,
Mirzo Ulug‘bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish universiteti talabalar dekanati tyutori.

“VA’DA” qimmatga tushdi

Viloyat transportda xavfsizlikni ta’minlash boshqarmasiga kelib tushgan tezkor ma’lumotga ko‘ra, pastdarg‘omlik “J” ismli shaxs bir necha fuqaroga Samarqand temir yo‘l vokzaliga ishga kiritib qo‘yishni vada qilgan. Albatta, bepul emas, xizmati uchun yaxshigina haq ham so‘ragan.

Boshqarma mazkur xabar asosida tezkor tadbir o‘tkazdi. Unda “J” ismli shaxs tadbirga jalb qilingan fuqarodan yuqoridagi “xizmat”i uchun 400 AQSh dollarini olayotgan vaqtida ashyoviy dalillar bilan qo‘lga olindi.


Holat yuzasidan jinoyat ishi qo‘zg‘atilgan.

Jasur NORBOYEV,
viloyat transportda xavfsizlikni t’aminlash boshqarmasi xodimi, kapitan.

Xotira

Bu Samarqand davlat chet tillar instituti professori O‘rol Usmonovning hayotiy aqidasi, kundalik tutumi edi.
U 1945-yil 24-martda Past Darg‘om tumanida tug‘ilgandi. Tumandagi 16-o‘rta maktabni muvaffaqiyatli tugatganidan so‘ng Samarqand davlat universitetining xorijiy tillar fakulteti talabaligiga qabul qilinadi. Talabalik davrida iqtidorini namoyon etib, 1968-yilda universitetni a’lo baholarga tamomlagan.

Gar ortingda yaxshi nom qolsa...



Ingliz tili o‘qituvchisi mutaxassisligini olgan yosh ustoz Past Darg‘om tumanidagi 21-maktabda ingliz tili fani o‘qituvchisi sifatida ishga yuboriladi. Dastlabki faoliyati davomida ingliz tili bo‘yicha chuqur saboq berib, o‘quvchilar va maktab jamoasi orasida katta obro‘ga erishdi. Ko‘p o‘tmay uni S.Ayniy nomidagi Samarqand davlat pedagogika institutiga ishga taklif qilishdi. 1970-yildan ingliz tili grammatikasi bo‘yicha institutda ingliz tili fakulteti talabalariga bilim berishni boshlaydi.

Tashkilotchiligi, tinimsiz izlanishi bilan institut jamoasida hurmat-e’tibor qozongan O‘rol Usmonov tez orada ingliz tili fakultetiga dekan o‘rinbosari lavozimiga tayinlanadi. Faoliyati davomida kafedra mudiri, ingliz tili fakulteti dekani va boshqa vazifalarda sitqidildan mehnat qildi.

O‘rol Usmonov 1983-yilda Kiyev davlat universiteti qoshida ixtisoslashgan ilmiy kengashda nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan.

Domla O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi a’lochisi, mehnat faxriysi va oliy talim a’lochisi ko‘krak nishonlari sohibi edi.

Uning ilmiy rahbarligida 20 dan ziyod tadqiqotchilar nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildi.

Hozirgi kunda professor O‘rol Usmonovning shogirdlari respublikamizning nufuzli oliy o‘quv yurtlarida faoliyat yuritmoqda.

Shu kunlarda institutimizning 30 yilligi munosabati bilan o‘tkazilayotgan tadbirlarda ustozni xotirlab, uning ilmiy va hayot yo‘li haqida so‘z yuritilmoqda.

O‘rol Usmonov katta iqtidor egasi mohir murabbiy, tinim bilmas tadqiqotchi, yetuk olim bo‘lish barobarida jonkuyar ota, ibratli oila boshlig‘i edi.

U turmush o‘rtog‘i bilan besh nafar farzandni tarbiyalab, elga qo‘shdi. Bugun ular jamiyat hayotining turli sohalarida faoliyat ko‘rsatib, respublikamiz taraqqiyoti, el-yurti farovonligiga xizmat qilmoqda.

Bobosi kabi ilm talabida bo‘lgan nabiralari mazkur sohada yuqori natijalarga erishmoqda.

Bugun O‘rol Usmonov oramizda bo‘lmasa-da, uning ishini shogirdlari, farzand va nabiralari davom ettirayotganidan ko‘ngil taskin topadi.

Shahlo SHOMURODOVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti professori.

REKLAMA, E’LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e‘lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

DA’VOLAR BO‘LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasida marhum Meliyev Radjabga (2023-yil 7-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Nodirabegim ko‘chasi, 5/1-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Hazratqulov Mahmud Mo‘minqulovich notarial idorasida marhum Muxamedov Ismail Aliyevichga (2014-yil 19-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Hazratqulov Mahmud Mo‘minqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko‘chasi, 36-uy.

* * *

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Muhammadiyev Farhod Jo‘raqulovich notarial idorasida marhum Sanakulov Zaxid Payziyevichga (2021-yil 15-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Muhammadiyev Farhod Jo‘raqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko‘chasi, 73-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Yusupova Iroda Rustamovna notarial idorasida marhum Malikov Djafar Shamshatovichga (2023-yil 31-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Yusupova Iroda Rustamovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Bog‘dod ko‘chasi, 1-uy, 3-xona.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Bekova Masturaga (2024-yil 26-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko‘chasi, 158-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Jo‘rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Akramxodjayev Gulshanga (2020-yil 13-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Jo‘rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri O‘zbekiston ko‘chasi, 35-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius G‘afforov Ulug‘bek Rahimjonovich notarial idorasida marhum Murodov Xursandga (2023-yil 28-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning G‘afforov Ulug‘bek Rahimjonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Buyuk Ipak Yuli ko‘chasi, 18-uy, 14-xona.

* * *

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Mirzayeva Barno Jo‘raqulovna notarial idorasida marhum Sanakulov Zair Fazilovichga (2021-yil 17-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Mirzayeva Barno Jo‘raqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Zebuniso ko‘chasi, 4-“A” uy.

* * *

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasida marhum Mamatova Ramiza Xatamovnaga (2024-yil 10-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Mamatqulov Otabek Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Saroy ko‘chasi, 15-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Hazratqulov Mahmud Mo‘minqulovich notarial idorasida marhum Rizayeva Sulton Shamshotovnaga (2023-yil 23-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Hazratqulov Mahmud Mo‘minqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko‘chasi, 36-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasida marhum Xuramov Tolibga (2017-yil 1-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Nodirabegim ko‘chasi, 5/1-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasida marhum Xamidova Lela Tuychiyevnaga (2022-yil 6-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Yusupova Dilsura Hasanovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko‘chasi, 64-uy.

* * *

BEKOR QILINADI

Qo‘shrabot tuman qishloq xo‘jaligi bo‘limining (STIR: 200750709) gerbli muhri va burchak tamg‘asi yo‘qolganligi sababli bekor qilinadi.

OCHIQ DARSGA TAKLIF ETAMIZ!

O’zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti texnologik ta’lim kafedrasi dotsenti v/b. Shohista Mamasoliyeva texnologik ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich 206-207-guruh talabalariga “Xalq hunarmandchiligi va badiiy loyihalash” fanidan “Zargarlik san’ati” mavzusida ochiq dars o’tadi.

Mashg‘ulot 2024-yil 19-noyabr kuni soat 14:30 da, texnologik ta’lim kafedrasi binosi 12-“T” xonada boshlanadi. Manzil: Samarqand shahri Spitamen shohkochasi, 166-uy.

ANIQLIK KIRITILADI!

“Zarafshon” gazetasining 2024-yil 6-noyabr 128-soni 3-sahifasida “AKSIYADORLAR DIQQATIGA” sarlavhasi ostida “Jomboy don mahsulotlari” aksiadorlik jamiyati aksiadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi 2024-yil 22-noyabrda o‘tkazilishi haqida e’lon chop etilgandi. Aksiadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi kun tartibidagi 6, 7, 8, 9, 10, 11, 12-masalalar kun tartibidan olib tashlanmoqda.

JAMIYAT KUZATUV KENGASHI.

Zulfiya MO‘MINOVA,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi:

Saratonda, ayni choshgohda “Suyunchi, uyimizda qiz bola tug‘ildi” deb, suyunchilayotgan akamga o‘rtoqlari havas bilan qarashibdi. Xolalarim, ammalarim biznikiga yugurishibdi. Suyunchi berayotgan keksalar “Umri bilan, rizqi bilan bergan bo‘lsin” deya, duolar qilishibdi.
Narpayim, sen bu xushxabarni eshitgan momomga qo‘shilib shukronalar qilgansan, bobomdek ehson tarqatgansan, otamga qo‘shilib orzularga berilgansan.



Men tug‘ilgan yurt qushlari sayroqi, havolari jonga malham, har qarichi mukarram –

NARPAYIM

Mehrlar qurshovida kamolga yetdim. Olamni anglay boshlaganimda ko‘zlarim sening bepoyon kengliklaring, tiniq osmoning, hosildor dalalaring, baraka barq urgan bog‘laring, qizg‘aldoqlar sep yoygan qirlaring, rang-barang gullaringga tushdi. Men butun dunyoni shunday go‘zal deb angladim.

Aqlimni taniy boshlaganimdan yaxshi odamlar qurshovida bo‘ldim. Bunda odamlar bir-biriga yaxshilik sog‘inadilar, ezgulik tilaydilar.

Vatanga sadoqat, imon, e’tiqod, insof, odamgarchilik, oqibat, sharm-hayo, uyat, andisha, izzat, hurmat kabi fazilatlarni dastlab narpayliklarda ko‘rdim. Go‘dak tasavvurimda butun olam - Narpayim sen, butun odamzod narpayliklardek edi.

Ona qishlog‘im - Yangisaroy. Bu yerning urf-odatlari mendagi odamiylikni tarbiyaladi. Otam va onam bir qishloqdan - yangisaroylik bo‘lishgan. Qishlog‘imizning bir yonida Narpay kanali, bir yonidan Qozoqariq, qoq o‘rtasidan Damariq oqadi. Qishloq Damariqdan suv ichadi. Bolalik tasavvurimda yoshi kattalarning “Saylovga boramiz” deya yuk mashinalariga minib, kolxoz idorasiga ketishgani, meni esa “hali yoshsan” deb, tashlab ketishgani esimda. Boshqa bolalarni bilmadim-u, ammo mening kolxoz idorasiga borib, o‘sha saylov degan anjumanni juda-juda ko‘rgim kelardi. “Biror qarindoshimiz rahmi kelib olib ketar”, degan umidda yo‘l boshidagi toshga chiqib o‘tirib oldim. Baxtimga yaylovdan otini minib, bobom kelib qoldi. Bobomning qo‘lida saylov qog‘ozi bor ekan. Bobom uyga kirib, kiyimlarini almashtirib chiqdi-da, oq yo‘rg‘aga meni mingashtirib saylovga yo‘l oldi. Borsak, kolxoz klubida tumonat odam ichkariga kirib, saylov qog‘ozini tashlab chiqayotir. Kolxoz idorasi yonida sartaroshxona bo‘lib, unda hamqishlog‘imiz ishlardi. Bobom otini ariq bo‘yidagi daraxtga bog‘lab, menga o‘zim yaxshi ko‘rib yeydiganim, qog‘ozga o‘ralgan moyli holvadan olib berdi va sartarosh Ashur tog‘aga menga qarab turishni tayinlab, o‘zi saylovga, saylov qog‘ozni olib kirib ketdi. Men esa saylovni ko‘rishni istardim. Ammo yosh bolalar u yerga qo‘yilmas ekan. Klubda bo‘layotgan saylovni ko‘rish uchun yo‘l izlay boshladim. Sartaroshxonada Ashur tog‘aning bizdan ikki sinf yuqorida o‘qiydigan o‘g‘li otasiga qarab yurardi. Men unga “Klub derazisidan menga saylovni ko‘rsatsang, qo‘limdagi moyli holvalarni beraman”, dedim. U rozi bo‘ldi. Klub derazasi tagiga borib, engashib turdi. Men uning ustiga chiqib, ichkarini, saylovni kuzatdim.

Odamlar qizil parda tortilgan joyga navbati bilan kirib chiqar, so‘ngra qo‘llaridagi qog‘ozni zal chetida o‘tirganlarga topshirardi. Ular allaqanday daftarlarga allanimalarni yozar edi. Meni ko‘proq o‘sha yozuvlar qiziqtirardi. Buni o‘qishning iloji yo‘q edi.

Bobom saylov qog‘ozini topshirib chiqdi. So‘ng do‘konga kirib, novvot olib chiqdi va meni otiga mingashtirib, yana uyga tomon yo‘lga tushdi. Yo‘lda bobomdan so‘radim “Bobojon, saylovda nima yozdingiz?». Bobom “Bir o‘risni deputat qilib sayladik. Ammo u o‘risni men tanimayman. Aytishlaricha, yaxshi odam emish”, dedi.

Besh yoshimdan boshlab meni onamning ota-onasi tarbiyasiga oldi. Bu balki bizning uyda yosh go‘daklar ko‘pchilik bo‘lgani uchun onamga yordam bo‘lsin uchun ko‘mak sifatida olganlaridir. Onamning onasi Sanobar momomga biz nabiralar “katta ena” deb murojaat qilardik. Men yugurib bitiriladigan ishlarga, yengil yumushlarga yarab qolganimdan rosa xursand bo‘lardim. Masalan, qishloq chekkasida yolg‘iz yashaydigan Tojinor momoga har ertalab sut olib borib berish, tovuqlarning tuxumini paqirga terib chiqish, choynak-piyolalarni yuvish, buvam daladan kelsalar, maxsisini yechib, qo‘llariga suv quyib turish kabi yumushlar mening ishim edi. Ayniqsa, buvamning oyoqlarini uqalash va yerga qarab yotganlarida ustiga tik oyoqda turib, bellaridan yelkalarigacha u yoqdan bu yoqqa yurish yoqardi. Ikkinchi jahon urushini ko‘rgan bobomning tanasida katta-kichik chandiqlar bor edi. Bu janggohda buvamning tanasini teshib o‘tgan o‘qlarning izi. Bitta o‘q bobomning o‘ng yelkasiga tegib, oldidan teshib o‘tgan, biri qo‘lning u yog‘idan tegib, bu yog‘idan chiqqan, biri belidan o‘tgan. Ikkala oyog‘ida esa beo‘xshov chandiqlar ko‘p edi. Bu chandiqlar nemis itlari tishlarining o‘rni ekan.

Qaysidir bir jangda nemislar buvam va uning batalonini asir oladi. Bir necha oylik tutqunlikdan so‘ng buvam va uning do‘stlari qochishga muvaffaq bo‘ladi. Buni sezib qolgan nemislar ularni quvib keladi. Reja bo‘yicha o‘zlarini daryoga tashlab qochish kerak bo‘lgan. Ammo nemislardan oldin yetib kelgan ovcharka itlarga qarshi buvam va yana ikki askar o‘rtog‘i kurashib turgan. Ko‘pchilik o‘zini daryoga tashlagandan keyin buvam va uning baquvvat o‘rtoqlari ham suvga tashlab qochishgan. Ularning ustidan o‘qlar yomg‘irdek yog‘dirilgan, yaralaridan qon chakillab tursa-da, sovuq suvni kechib o‘tgan askarlarning barchasi sog‘-salomat qolishgan...

Ayozli qish tunlarida buvamning oyoqlari og‘rir, ingrab chiqardi.

* * *

6 yoshli qizaloq edim. Fevral oyi bo‘lsa kerak, buvam va momom ro‘za tutadigan bo‘lishdi. Ro‘zaning ma’nisini tushunmasam-da, men ham ro‘za tutmoqchi bo‘ldim. Qishning sovuq kechasida buvam va momomning shivir-shiviridan uyg‘ondim. Issiqqina ko‘rpaga o‘ranib yotar ekanman, ikkisi ham uyg‘onganini sezib, sekin o‘rnimdan turdim. Momom pech ustida turgan oftobalarning birini, bobom ikkinchisini olib, chiqib ketishdi. Tashqariga chiqib, yuvinib, tahorat olib kelishdi. Men ham o‘zim bilgancha yuvinib keldim. Momom pech ustiga qozonchaga sut solib, choygumni qo‘yib, joynamozlarni yozib turgan bobomning oldiga o‘tdi. Uyning to‘rida qiblaga qarab nomoz o‘qishdi. Men pechga suyanib, bobomning ovoz chiqarib “Allohu akbar, Allohu akbar, Allohi akbar” deyishlari bilan ko‘rpachaga o‘ranib qotib qolaman. Ular joynamozi - uchar gilamida o‘zga dunyoga uchib ketgandek bo‘lardi. Nazdimda ular sajdaga bosh qo‘yib, butun dunyoni yomonlikdan qutqarayotgandek tuyulardi.

Bobomning ovozi shunday shirali ediki, sehrlanib o‘tirardim. Ular nomozni tugatishi bilan o‘rnimdan turib, ta’zim bilan ularga salom berardim. Bu orada shirchoy tayyor bo‘lar, dasturxonda xurmo, mayiz, yong‘oq bo‘lib, men ham o‘zimcha mehribonlarim bilan ro‘za tutardim. Erta tongda momom menga nonushta qilib berar, ammo o‘zlari yemas edi. Bobom ham, momom ham namoz o‘qir, tasbeh o‘girardi. Ertalabdan bobom chorva mollariga qarash bilan, momom uy yumushlari bilan band bo‘lardi. U paytlar hali qishloqqa elektr kelmagan, tabiiy gaz odamlarning tushiga ham kirmagan zamonlar edi.

Bobomning oshxonasi yonida kattagina omborxonasi bo‘lib, omborxonaning yarmida qoplarda guruch, no‘xat, mosh va yana bir qancha menga noma’lum don-dunlar turardi. Omborxonaning yarmiga somon to‘shalgan, unda tarvuzlar, tepada osilgan qovunlar va uch-to‘rt qator simlarga osilgan uzumlar, anorlar saqlanardi. Qishda qanday saqlashganini eslolmayman-u, ammo to “ilik uzildi”gacha, olma va behi, yong‘oq, mayiz, turshakning keti uzilmasdi. Ayozli kunlar boshlanganda bobom ikkita qo‘chqorini so‘ydirar, katta qozonda o‘zining yog‘iga qovurib, sopol xumlarga soldirib qo‘yardi. Bu xumlar oshxona to‘rida saqlanardi. Qish chillasida, ayniqsa, ro‘za chog‘ida momom bu go‘shtlardan turli taomlar tayyorlar, kosalarga solardi-da, qo‘limga berib, “Iftorda duo qilib yeydi” deya qishlog‘imiz keksalarining uylariga jo‘natardi. Go‘shtlarni tarqatar ekanman, hamqishloqlar tomonidan berilgan xurmolaru mayizlardan xohlagancha mazza qilib yerdim.

* * *

4-sinfdaligimda germaniyalik maktab o‘quvchisi, nemis qizi Xildaga maktub yozgandim. Jahlim chiqqanidan xatni salom bilan boshlamaganman:

“Men, o‘zbek qahramonining nabirasiman. Buvamni hamma pahlavon deb hurmat qilishadi. Sening nemis buvang fashistdan o‘tib ketgan fashist ekan. Bizning tinch Vatanimizga bostirib kelgani yetmaganday, bizning askarlarni qamoqlarga tashlagan, azoblar bergan. Buvamni va uning bir nechta o‘rtoqlarini asirga tushirgan. Buvam va uning safdoshlari tutqundan qochishga erishgan. Buvamning badanida chandiqlari ko‘p. Uni sening buvang otgan. Chandiqlar - o‘qlar teshib o‘tgan yaralarning o‘rni. Itlaring ham haqiqiy nemisning iti ekan. Buvamning oyoqlarini tishlab tashlagan. Ammo buvam baribir taslim bo‘lmagan. Sening buvang o‘zi qanday odam?

Aleksandr Sergeyevich Pushkin ertagida yozganidek:

Na qizaloq, na o‘g‘lon,
Badbashara bir hayvon.

Meni kechirgin-u, balki sening buvang o‘zini senga qahramon qilib ko‘rsatar. G‘irt yolg‘on. Sening buvangning badanida chandiqlari yo‘qdir, oyoqlari og‘rimas. Mening buvam bir kuni Berlinga yana bormoqchi, balki meni ham olib borar. Sen o‘shanda nemis buvangni yashirib qo‘y. Yo‘qsa, buvam uni Brest qal’asidan uloqtirib yubormoqchi. Buvam menga “Buvalarning gunohi uchun nabiralar javob bermaydi, faqat uyaladilar”, deydi.

Momojonim bir kuni menga “Mana, sen ham kap-katta bo‘lib qolding. Menga anavi qirg‘in urushdi boshlagan nemisti boshlig‘i, qonxo‘r Gitlerni aniq otini, go‘rginang kuygurdi otasini otini bilib kel!”, dedi. “Gitlerdi otasini oti sizga nimaga kerak?”, deb so‘radim. “Qarg‘ashim uchun kerak. Zoti – zurriyodi bilan qo‘shib qarg‘ashim va qarg‘ishim to‘g‘ri borib tegishi uchun”, dedi. “Busiz ham Gitler o‘lib ketgan-ku”, dedim. “O‘lgan bo‘lsa ham bilib kel, gap bor”, dedi. Ertasiga bilib kelib, “Momojon, anavi Gitlerning otasini oti Adolf ekan. Marhamat, kampirlarning shohi qarg‘ayversinlar!”, dedim. Momom qilayotgan ishidan to‘xtab, “Ay, sen Adolipti uli Gitler! Necha-necha kun ko‘rmay ketgan jovqir jigitlardi ruhi haqi, bevalaru jetimlar haqi, hali ham erlarini kutayotgan sodiqlar haqi ikki dunyong kuysin!” dedi. “Chalpagini itlar yesin” deb qo‘shib qo‘ydi. Bu juda og‘ir qarg‘ish. Bizda o‘lgan odamning arvohiga atab chalpak - is pishiradi.

Agar nemis fashistlarini qarg‘ash bo‘yicha jahon birinchiligi o‘tsa, momom birinchi o‘rinni olishi aniq. Momom seni momongni qarg‘amaydi, ammo uning aytishicha, sening momong buvangga “Hoy, Yaratganning bandasi, birovning yurtida senga pishirib qo‘yibdimi? Birovni otib, o‘ldirib nima qilasan? Haromdan topganing buyurmaydi, sen o‘zbeklarni qarg‘ishini olma!” demaganda.

Darsdan qaytganimda momomga tinchlik haqida yozgan she’rimni o‘qib bersam, ko‘zida yosh bilan rosa duo qildi. Buvamga o‘qib bersam, ular maktabimiz oshxonasidan shirinliklar sotib olishim uchun pul berdi.

Xilda senga maktub yozishimdan maqsadim dugona topolmay qolganimdan emas. Sen o‘zingning nemislaringga biz o‘zbeklar haqida gapirib ber. Bundan keyin buvalaring qilgan xatolarni nabiralari takrorlamasin. Do‘st bo‘lib yashaylik. Biz tinchlik istagan xalqmiz. Sen o‘zlaring haqingizda yozib yubor.

Manzilim: Samarqand, Narpay, 9-maktab 4-“A” sinf, Zulfiya Mo‘minova.

Mazkur maqolaning elektron shaklini ushbu QR-kod orqali o‘qishingiz mumkin.

Mushtariy ijodidan

Saodat DONABOYEVA –

1954-yilda Payariq tumanida tug‘ilgan. Tosh-DU (hozirgi O‘zbekiston Milliy universiteti)ning tarix fakultetini tamomlagan. Dastlab o‘sha paytdagi "Sovet O‘zbekistoni" gazetasida, "Sharq Yulduzi" jurnalida, O‘zbekiston radiosida ishlagan. "Ufqlar qo‘shig‘i" nomli kitob muallifi. «Yoshlik almanaxi», «Buloq ko‘z ochdi», «Yoshlar ovozi» to‘plamlarida ijod namunalari chop etilgan.



Kumushbibi, umringizga
Otabekning qarzi bor.
Sevgi to‘la dilingizning,
ayriliqqa arzi bor.

Bir qush bo‘lib uchdingiz-ku,
qanotlari qayrilgan.
Shunday beri ahli oshiq,
Kumushidan ayrilgan.

Muhabbatning ramzi bo‘lib,
xayollarda uchasiz.
Kapalakdek ming tovlanib,
nigohlarni quchasiz.

Otabekni olib ketdi
sadoqatning yo‘llari.
Bu yo‘llarda sochilmishdir
hijron dardi, gullari.

Sizni sevdi o‘zbek elin
har yigiti, o‘g‘loni.
Siz ularning orzusi-yu,
va ushalmas armoni.

* * *

Uzun-uzun o‘ylarimning so‘nggida,
Ko‘rinadi ma’yus, g‘amgin nigohing.
Xotiralar qiynog‘ida qolgan dam
Shu o‘ylarning bag‘ri bo‘lar panohim.

Uzun-uzun karvon yasab samoda
Taft axtarib uchib o‘tar turnalar.
Ikkimizning sevgimizni joylashga
Dunyo bag‘ri tor keldimi shunchalar?

Nelargadir bo‘ysundikmi bizlar ham,
Taqdir bizni shu ko‘ylarga yo soldimi.
Derlar abad bu dunyoning biri kam.
Shu kamiga sevgimizni yo oldimi?

Saodat DONABOYEVA.

Qishloq

Yulduzlarga boqaman uzoq,
Ular meni ko‘risharmikan?
Menday bedor, yurakda pok his,
Tong otmasdan turisharmikan...

Shamollarga tutaman qo‘lim,
Kel, yonimga o‘tirgin bir pas.
Ular olib ketadi ko‘nglim
Ko‘k toqiga tubsiz va besas.

Atrof jim-jit tuyular, lekin
Abadiydir jilo va g‘uluv.
Har daqiqa quyilar betin
Azaliydir-muhabbat suluv.

Shu tuproqda tug‘ildi bolam
Mening kabi erkin va go‘zal!
Bu yer mening ilk ishqim-lolam,
Tillarimdan hech tushmas g‘azal.

Shu yer - mening tug‘ilgan uyim,
Shu yer - mening otam va onam.
Shu yer - mening birinchi kuyim,
Shu yer - mening so‘nggi ostonam.

Noyabr

Noyabr-yomg‘irlar mavsumi,
Tomchilar tuyg‘ular ma’sumi
Yarqirab-yarqirab ko‘nglimga.

Men esa-deraza yonida.
Sog‘inchlar to‘ydirar jonimdan,
Sim qoqqim keladi singlimga...

Noyabr-xotira chechagim
Suluvdir, garchand u kechagi.
Bahori, yozimday xush, mayin.

Oxirlaydi yeru ko‘kda kuz,
Dil o‘rtanar aytolmay bir so‘z
Qushlar bog‘im tark etgan sayin.

Noyabr-bulutlar qaddi dol,
Daraxtzorda sovuqdan shamol
Dong qotibdir, chiqarmas tovush.

Olislaydi mehribon quyosh,
Lek xazonlar bag‘rida otash,
Tong otibdir-qish, qattiq sovush.

Noyabr, do‘stimsan qadrdon,
Qayda umid, qaydadir armon...
Aytganimdan aytmaganim ko‘p.

Bo‘zaradi bag‘rikeng osmon,
Shoshilmaysan, hali begumon.
Aytganingdan aytmaganing ko‘p.

Noyabr-qovjirar gul-rayhon,
Hovlimni tutadi bir jahon
Yomg‘irga qo‘shilib bo‘ylari.

Xonamda gullarim dilorom,
Tinglashadi bedor, beorom
Mening kabi yomg‘ir kuylarin...

Oygul SUYUNDIQOVA,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi.

SHU OYDA TAVALLUD TOPGANLAR

19-NOYABR

Muhsinjon ASHUROV – 1949-yilda Samarqand shahrida tug‘ilgan. Fizik olim. O‘zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi.

22-NOYABR

Muxtor O‘RALOV – (1938-2014). Xatirchi tumanida tug‘ilgan. Biologiya fanlari doktori.

Asror JO‘RAYEV – (1911-1983). Samarqand shahrida tug‘ilgan. Aktyor va rejissyor. O‘zbekiston xalq artisti.

Gazetaning navbatdagi soni 2024-yil 20-noyabr, chorshanba kuni chop etiladi.

MATBUOT UYI
Zarafshon
Самаркандский вестник

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O‘zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 10 545 nusxada chop etildi. Buyurtma 606. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E’LONLAR: (66) 233-91-56
BO‘LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug‘ Tursunov ko‘chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo‘limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko‘chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.
Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir: A.SHERXOLOV.
Navbatchi: X.ERNAZAROVA.
Sahifalovchi: B.ABDULLAYEV.

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X

Sotuvda narxi kelishilgan holda